



XALQ DEPUTATLARI QASHQADARYO VILOYATI KENGASHINING QARORI

2025-yil 5-avgust

VII-14-131-4-0-K/25

Qashqadaryo viloyati

Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashining 2025-yil 20-maydagi VII-11-86-4-0-K/25–sonli qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasining 2025-yil 3-iyuldagi 01/160 va 01/161-sonli xatlarini inobatga olib hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. “Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashining 2025-yil 20-maydagi VII-11-86-4-0-K/25-sonli qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi O‘zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi boshlig‘i O.Ravshanovning ma‘ruzasi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. “Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashining 2025-yil 20-maydagi VII-11-86-4-0-K/25-sonli qarori ilovasining 27-, 33-, 49-, 50-bandlari o‘zgartirilib *ilova*ga muvofiq tasdiqlansin hamda mazkur qaror ilovasining 53-bandi to‘liq chiqarib tashlansin va raqamlar ketma-ketligi ushbu o‘zgartirishlar kiritilgandan keyingi holatida qaytadan joylashtirilishi inobatga olinsin.

3. Ushbu qaror rasman e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi I.Xalilov hamda viloyat hokimining o‘rinbosari A.Qobilov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



XUSHMURODOVA
ISMIGUL
BERDIMURODOVNA

Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashining
2025-yil 5-avgustdagi
VII-14-131-4-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**Birlashtiriladigan mahalla fuqarolar yig'inlariga o'zgartirish kiritilishi
RO'YXATI**

T/r	Tuman (shahar) nomi	Birlashtiriladigan (qisqartiriladigan) mahalla nomi	shundan		Qo'shni mahallaga birlashtirilgandagi ko'rsatkichlari			Izoh	
			Aholi soni	Xonadon soni	Mahalla nomi (qo'shiladigan mahalla nomi)	Aholi soni	Xonadon soni		
27	Chiroqchi tumani	"Amir Temur" MFY	2775	516	"Do'stlik diyori" MFY	6704	1025	"Amir Temur" mahallasidan "Do'stlik diyori" mahallasiga 171 ga yer maydoni, 2775 nafar aholi, 516 ta xonadon qo'shiladi.	"Do'stlik diyori" va "Amir Temur" nomli mahallalari birlashib, yangi mahalla "Amir Temur" nomi bilan yuritiladi."Do'stlik diyori" mahallasi binosida faoliyat olib boradi. "Amir Temur" mahallasi o'z binosiga ega emas.
33	G'uzor tumani	"Obod" MFY	1927	565	"Tinchlik" MFY	6046	1331	"Obod" mahallasidan "Tinchlik" mahallasiga 40 ga yer maydoni, 1927 nafar aholi, 565 ta xonadon qo'shiladi	"Obod" va "Tinchlik" mahallasi birlashib, yangi "Tinchlik" mahallasi binosida faoliyat olib boradi.
49	Nishon tumani	"Obi hayot" MFY	2242	508	"Obod" MFY	3400	1025	"Obi hayot" mahallasidan "Obod" mahallasiga 2,08 ga yer maydoni, 2242 aholi, 508 xonadon qo'shiladi. "Obi hayot" mahallasi "Obod" mahallasiga qo'shilayapdi	"Obi hayot" va "Obod" mahallasi birlashib yangi mahalla "Obod" mahallasi eski "Obi hayot" binosida faoliyat olib boradi.
50	Nishon tumani	"Tinchlik" MFY	2979	614	"Do'stlik" MFY	3289	702	"Tinchlik" mahallasidan "Do'stlik" mahallasiga 7,87 ga yer maydoni, 2979 aholi, 614 xonadon qo'shiladi."Tinchlik" mahallasi "Do'stlik" mahallasiga qo'shilayapdi	"Tinchlik" va "Do'stlik" mahallasi birlashib, Dustlik yangi mahalla "Do'stlik" mahallasi" mahallasi binosida faoliyat olib boradi.